

**MAKTABLARDA TARIX FANINING O'QITILISHI VA GENDER TENGLIGI**

**MEZONLARI XUSUSIDA**

Umirova Nargiza Tashbulovna

Jizzax Davlat Pedagogika Instituti, 1-bosqich magistranti

**ON HISTORY TEACHING IN SCHOOLS AND GENDER EQUALITY CRITERIA**

Umirova Nargiza Tashbulovna

Jizzakh State Pedagogical Institute

1st Stage Graduate Student

Ma'lumki, dars o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini sifatida o'quvchilarga fan asoslarini o'rgatishda muhim o'rinni egallaydi. Har bir darsga tayyorlanishda DTS va o'quv dasturining uqtirish xatidagi ko'rsatmalar nazarda tutiladi. Darsni tayyorlash va o'tkazishda o'qituvchining o'z predmeti bo'yicha o'quv dasturining har bir mavzusiga tayyorlanishi, darsga puxta tayyorlanishini talab qiladi. Tarix darsiga qo'yiladigan muhim didaktik talablar: " ilmiylik, tarixiylik, metodologik, ko'rsatmalilik, o'quvchilarni bilish imkoniyati va yosh psixologik xususiyatlari, uzbeklik va uzliksizlik, tarixni zamon va makon kontekstida bog'lash, ta'lim va tarbiya maqsadi "[1] ga ega ekanligidir.

Tarix fanini o'rganishdan maqsad tarixni bilmasdan turib, kelajakni anglab bo'lmasligini yosh avlodga uqtirishdir. Shuni inobatga olgan holda, tarix fanini rivojlantirish Konsepsiysi ishlab chiqildi. Konsepsiya Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 19 yanvar kuni Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat Kengashining videoelektor tarzida o'tkazilgan majlisi 3-bayoni 27-bandji ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqildi. Konsepsiyanidan ko'zlangan maqsad shuki, jahonda tarix fanining rivojlanishi, yangi tarixiy bilimlarning ortishi, o'tmishdagi voqealarga jamoatchilik qiziqishi kuchaygani hamda chuqur dunyoqarash va ko'nikmalarga ega, ijodiy va tizimli mulohaza qiladigan tarixchi mutaxassislar, o'qituvchi va ilmiy xodimlar yangi avlodini chiqarish, olingan ilmiy natijalarni ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarida ta'sirchan qo'llash, jamiyatda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini mustahkamlashda xizmat qiladigan tarixiy tafakkurni tarbiyalash ekani aytildi. Shu asnoda ta'kidlash joizki, o'quvchilar tarixiy ma'lumotlarni to'laqonli tushunishlari, milliy sharoitdagiligi amaliy islohotlar, xususan Gender sohasidagi islohotlarning mohiyati hamda tarixiy-huquqiy asoslarini anglashlari muhimdir.

2019 yil 2 sentabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat sifatida ma'qullangandi. Hozirgi davrda O'zbekistonda islohotlarning maqsadi inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol

huquqlarining tan olinmaslik holatlari, shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga yetarlicha ahamiyat berilmayotgani ayni haqiqatdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar"[2] deb belgilab qo'yilgan. Gender tengligi ijtimoiy tenglikni ham anglatadi. Bunday tenglikni ta'minlash uchun Konstitutsiya va qonunlarga zarur qoidalarni kiritishning o'zi kifoya emas. Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan tarixiy - ijtimoiy munosabatlarda dolzarb o'rinni egallaydi.

Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasida bo'lib, bu boyicha 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va Gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi. O'zbekiston tarixida birincha bor Parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan ko'rsatmalarga mos holatga yetib, xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va jahondagi 190 ta Parlament orasida 37-o'ringa chiqdi. Boshqaruva lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizni, partiyalarda 44 foizni, oliy ta'limda 40 foizni va tadbirkorlikda 35 foizni tashkil qildi.

Maktablarda o'quvchilarga tarix darslarida mamlakatimizda Gender sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni o'rgatishimiz va ularning tafakkuriga Gender tarixini zamonaviy metodlar asosida tushuntirishimiz muhimdir. Jumladan, konsepsiya o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi bo'yicha butunlay yangicha, milliy manfaatlarga mos ilmiy yondashuvlar asosidagi turkum asarlarni tayyorladi. Chuqur bilimga ega, ijodiy va tizimli fikrlaydigan ilmiy xodimlar avlodni shakllanadi. Oliy ta'limda tarixchi mutaxassislar tayyorlashning butunlay yangicha, ilmiy muassasalar bilan uzviy bog'langan tizimi paydo bo'ladi. Tarix yo'nalihidagi ilmiy xodimlar, professor-o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish darajasi o'sadi. Ta'kidlanishicha, konsepsiyanı amalga oshirish bo'yicha sarf-xarajatlar davlat byudjeti hisobidan qoplanishi nazarda tutilmoxda. Shu asnoda tarix o'qitishda ko'rgazmali vositalar tarixiy bilimlarning o'quvchilar ongiga yetkazish va singdirishda muhim manba hisoblanadi. "Ko'rgazmalilik eng avvalo o'qitish va o'rganishning ko'rgazmali usuli, o'qituvchi bayonining ko'rgazmali bo'lishi, uning o'quvchilardagi tayyor obrazlarga suyana bilishi, o'quv materialini bayon qilish vaqtida ko'rgazmali qurollardan foydalanish va ko'rgazmali qurollar vositasida o'quvchilarning bilish faoliyatini jadallashtirish hamda ularning o'rganilayotgan tarixiy jarayonlarni, voqealar va hodisalarini aynan o'zini yoki ularning tasvirlarini ko'rish yordamida o'rganishlari tushuniladi" [3].

Tarixiy hujjatlar va badiiy adabiyotlardan foydalanish o'qituvchi bayonini obrazli qilib konkretlashtirsa, ko'rgazmali qurollar vositasida o'quvchilarda o'tmishto'g'risida yorqin va aniq tasavvur hosil bo'ladi, o'quvchilarning eshitish faoliyatiga ko'rish va sezish organlarining faoliyati ham qo'shiladi. Shu bilan ularning bilimi yanada chuqurlashadi va mustahkamlanadi. Ko'rgazmali qurollar o'quvchilarning bilim olishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi hamda

o‘quvchilarning tarixiy tasavvurlariga aniqlik kiritadi va bu tasavvurlarni konkretlashtirishga yordam beradi.

Ko‘rgazmali qurollar o‘quvchilarning murakkab tarixiy hodisalarning, tarixiy tushunchalarni ma’nosini osonroq tushunishga yordamberadi. Tarix o‘qitishda qo’llaniladigan ko‘rgazmali qurollar o‘zining mazmuni, tarixiy obrazlarining xarakteri, ularni tayyorlanish va foydalanish usullariga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Buyum ko‘rsatmalilik: tarixiy yodgorliklar, esdalik joylari; arxitektura yodgorliklari, xo‘jalikka doir va boshqa qurilishlar; mehnat qurollari; qurol-yarog’lar, ro‘zg‘or buyumlari, shu jumladan arxeologik topilmalar.
2. Tasviriy ko‘rgazmalar: o‘qitishda foidalanish uchun ishlangan tarixiy kartinalar va albomlar, san’at asarlari, portretlar, rasmlar, fotohujjatlar va fotosuratlar, darsliklardagi illyustratsiyalar, o‘quv diapozitivlari, diafilmlar va kinofilmlar, maketlar, mulyajlar, har xil modellar, multimedialar, Internet materiallari va boshqalar.
3. Shartli ko‘rsatmali qurollar: “Tarixiy va kontur kartalar, tarixiy atlaslar, sxemalar, grafika, diagramma va kartogrammalar, applikatsiyalar va pedagogik rasmlar. Buyum ko‘rsatmalilik ta’limda alohida ahamiyat kasb etadi. Fizika, kimyo yoki botanika o‘qituvchilar o‘rganilayotgan mavzuni o‘quvchilarga formula, shakl va boshqalarda ko‘rsatib tushuntirsalar tarix o‘qituvchisi unday imkoniyatlardan mahrumdir” [4].

Tarix o‘qituvchisi o‘quvchilarga ibtidoiy odamlar hayoti va faoliyatining aynan o‘zini ko‘rsatib bera olmaydi, faqat gapirib beradi, ko‘rsatsa faqat ibtidoiy kishilar ishlatgan qurollarni, yashagan joylarini, yoki aytaylik, O‘rta asrlardagi hukmdorlarni o‘zaro urushlarini emas, urushda ishlatilgan qurollarni va boshqa ba’zi bir buyumlarni, ayrim sarkardalar boshliq askarlarning janglarda ko‘rsatgan jasorat va qahramonliklarini emas, balki ular to‘g‘risidagi rassomlar chizgan ayrim rasm- kartinalarni ko‘rsatishi mumkin, xolos.

Ko‘rgazmali qurollarni tanlash va ulardan foydalanishda o‘qituvchi quyidagilarni e’tiborga olishi lozim:

1.O‘quvchilarning yoshi, bilimi va malaka o‘sib borgan sari ularning predmet va tasviriy ko‘rgazmalarga qiziqishi ortib boradi. Masalan, boshlang’ich sinf o‘quvchilarning ko‘proq o‘tmishdagi voqeа va hodisalarning yaxlit manzaralar tasvirlangan, maketlari va modellari qiziqtiradi. Yuqori sinfdagi o‘quvchilarni esa predmet yodgorliklarining aynan o‘zi va shartli ko‘rsatmalar qiziqtiradi.

2. Har bir dars uchun tanlangan ko‘rgazmali qurol mazmuni, g‘oyaviyligi, ilmiyligi jihatdan talabga javob beradigan bo‘lishi, sinf o‘quvchilariga mos bo‘lishi, soni ko‘paytirib yuborilmasligi lozim. Agarda ko‘rgazmali qurollar ko‘payib ketsa, o‘qituvchi va o‘quvchilar shu qurollar bilan ovora bo‘lib qolib, o‘quvchilarning dars materialini o‘zlashtirishiga xalaqit berishi mumkin. Darsda eng muhim 3-4 ta ko‘rgazmali qurolni tahlil qilish va o‘rganish yetarli bo‘ladi.

3. O'quvchilarning ko'rgazmali qurollarni ongli ravishda puxta o'zlashtirib olishlariga erishish kerak.

4. Ko'rgazmali qurollar o'qituvchining bayoni jarayonida ko'rsatib boriladi

Tarix darslarini ana shunday ko'rgazmalilik asosida va yangicha kayfiyatda tashkil qilar ekanmiz, o'quvchi yoshlarimiz tarixiy jarayon va o'tmishni jonli hamda keng dunyoqarash bilan o'zlashtiradilar. Ta'kidlash joizki, bu darslarda Gender tengligi borasida mamlaktimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy-tarixiy hamda huquqiy asoslariga to'xtalib o'tishimiz lozim bo'ladi. Chunonchi, Yangi O'zbekiston tarixi jarayonini tushuntirishimizda bu mavzu yanada o'zini namoyon qiladi. Jumladan, ota-onasi yoki ularning biridan ayrılgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo'q yolg'iz ayollarning o'qish to'lovlarini qoplab berish tizimi joriy etilib, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar soni ikki baravarga ortganligini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 224 mingdan ortiq xotin-qizga jami 6,9 trln so'm miqdorida imtiyozli kredit ajratildi. Sohada olib borilayotgan islohotlar xalqaro reytinglardagi mamlakatimiz o'rniga ijobiy ta'sir ko'rsatib, "...Jahon bankining ayollar, biznes va qonun indeksida O'zbekiston 2020-yilda Xotin-qizlar huquqlari va Gender tenglik bo'yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi va 5 pog'onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-o'rinni egalladi" [5].

Jamiyatda, oilada xotin-qizlar bilan bog'liq ijtimoiy masalalarni yaxshilash bilan shug'ullanadigan O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi hamda uning barcha viloyatlardagi bo'linmalari, Oliy Majlisning "Mehnat, ijtimoiy masalalar va bandlik qo'mitasi", "Oila va ayollar muammolari komissiyasi" (2000-2004 y.), "Sog'lom avlod" jamg'armalari va "Huquqshunos ayollar", "Ilm-fan va ayol", "Ijodkor ayollar", "Tashabbuskor ayollar", "Ayol va salomatlik", "Faxriy ayollar" jamoatchilik uyushmalari hamda boshqa jamoat tashkilotlarining faoliyati muhimdir.

Hozirgi kunga kelib, ayollarning haq-huquqlarini ilgari surish hamda rivojlantirish bo'yicha milliy mexanizmlar, shuningdek, ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha qatlamidagi rolini kuchaytirish bo'yicha milliy institutlar tashkil etilgan. Buning tasdig'ini "...ayollarning siyosiy partiyalardagi faolligi 36 foizdan 50 foizgacha oshganida kuzatishimiz mumkin. Bugungi kunda ayollarimiz iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida faoliyat yuritib kelmoqdalar. Jumladan, sanoatda 52%, Xalq ta'limi tizimida 70%, Sog'liqni saqlash tizimida esa 73% ayollarimiz mehnat qilmoqdalar." [6].

Chunonchi, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatida so'zlagan nutqida oilada, jamiyatda ayol zotiga qaratilgan e'tibor har qachongidan ham yuksak bo'lishi lozimligini alohida ta'kidlaganlar. Prezidentimizning "Meni kishilarimizning ongida paydo bo'lgan stereotip ko'p o'ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo'rg'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan

demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak”, [7] - degan e’tirofi respublikamizda ayollarga ko’rsatilayotgan ehtiromning yaqqol namunasidir. Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, bugun xalq ta’limi tizimida tarix fanini o‘qitishda zamonaviy metodlardan foydalangan holda o’quvchilarga boy o’tmishimiz, bebaho tarixiy merosimiz, ajdodlarimizning buyuk ma’naviy-ma’rifiy xazinasini ilmiylik, tarixiylik va xolisonalik asosida yetkazish biz kabi o‘qituvchilarning zimmasidagi ulkan va sharaflı vazifadir.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar**

1. MuratovaG. I. Tarix fanini o‘qitishning ko‘rgazmali metodlari va ulardan foydalanish yo‘llari. Педагогические науки. Наука XXI века. № 10. 2018г.
2. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: “O’zbekiston”, 1992.
3. Babanskiy Y.K. Hozirgi zamon umumiya’lim maktablarida o‘qitish metodlari. T.: “O’zbekiston”, 1990.
4. Sa’diyevA. Maktabda tarix o‘qitish metodikasi.T.: “O‘qituvchi”, 1988
5. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 28.05.2021 yildagi SQ 297-IV-sonli Qarori.
6. B.Mamadaminova. O’tmishga nazar | Vzglyad v proshloye | look to the past №-2 (2021). <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2021-si-2>
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil iyun oyida bo’lib o’tgan Oliy Majlis Senatidagi nutqidan. [https://strategy.uz/index.php?news=745& lang=uz](https://strategy.uz/index.php?news=745&lang=uz)